

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA MILLIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK

Yashar Qosim,
filologiya fanlari doktori,
Ozarboyjon Milliy Ilmlar
Akademiyasi, Nizomiy Ganjaviy
nomidagi Adabiyot institutining
bosh ilmiy xodimi

Резюме. Национальность и индивидуальность в лирике Абдуллы Орипова В государстве рассматриваются серьезные качественные изменения, произошедшие в узбекской литературе в конце 50-х - начале 60-х годов прошлого века. В частности, обновление узбекской поэзии привлекло в себя не только местных ученых и писателей, но и литературной общественности всесоюзного уровня. Абдулла Орипов был очень хорошо осведомлен о кровных и родственных республиках Казахстана, Киргизии, Туркменистана, Таджикистана и Азербайджана, а также во всех культурных центрах, близких к прежнему Советскому Союзу, и литературных кругах. Наряду с Чолпаном, Ойбеком, Хамидом Олимджаном, Гафуром Гуломом, Миртемиром, Эркином Вахидовым, Рауфом Парфи и другими, поэзия Абдуллы Орипова необыкновенно естественна и величественна, а в его крови заложен национализм и независимость, получившая признание литературной публичности. Литературеды и ряд других известных деятелей искусства выразили глубокую верность в светлом будущем таланте Абдуллы Орипова. В состоянии эти мысли и мнения сопоставляются и обобщаются с творческими поисками поэта.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, новая узбекская поэзия, Чолпан, Ойбек, Хамид Олимжон, Гафур Гулам, Миртемир, Эркин Вахидов, Рауф Парфи и другие.

Summary. Nationality and individuality in the lyrics of Abdulla Oripov The article examines the serious qualitative changes that occurred in Uzbek literature in the late 50s and early 60s of the last century. In particular, updates to Uzbek poetry attracted the attention of not only local scientists and writers, but also the literary community at the all-Union level. Abdulla Oripov was well known not only in the blood and related republics of Kazakhstan, Kyrgyzstan, Turkmenistan, Tajikistan and Azerbaijan, but also in all distant and close cultural centers of the former union, in literary circles. Along with Cholpan, Oybek, Hamid Olimjon, Gafur Gulom, Mirtemir, Erkin Vakhidov, Rauf Parfi and others, the poetry of Abdulla Oripov is unusually natural and majestic, and nationalism and originality are in his blood, which has already been recognized by the literary community. Literary critics and a number of other famous artists expressed deep confidence in the bright future of Abdulla Oripov's talent. The article compares and summarizes these thoughts and opinions with the creative searches of the poet.

Key words: Abdulla Oripov, new Uzbek poetry, Cholpan, Oybek, Hamid Olimjon, Gafur Gulam, Mirtemir, Erkin Vakhidov, Rauf Parfi and others.

Abdulla Oripov XX asr o'zbek adabiyotidagi eng milliy adabiy siymolardan biridir. Milliylik badiiy ijodning zaruriy ma'naviy-estetik sifatlaridan sanaladi. Ma'lum haqiqatki, milliy ruhdan oziqlanmagan, milliylik javhari jonida bo'lmagan ijodkorning jiddiy va chinakam iste'dod deb tan olinishi va qabul qilinishi amrimahol. Abdulla Oripovning ma'naviy go'zallik timsoliga aylangan dilbar lirikasini o'qiganda ham, ajib va jozib ko'ngil taronalarini tinglaganda ham huddi

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

shunday o‘ylarga, xayollarga borasan: “Makoning bo‘libdi tog‘lar orasi Sensan go‘zallikning asli, sarasi. Ma’yus yuraginda ishqning yarasi, Sen ham oshiqmisan yoki ohujon. Daralar qo‘ynida neni istarsan, Nechun doim g‘amgin, doim mustarsan. Latif shijoating qayga qistarsan. Sen ham oshiqmisan yoki ohujon.”

Bu dilkash she’riyatdagi nihoyat darajada teran samimiyat, xalq qo‘shiqlaridagi kabi hadsiz soddalik xuddi nondayin, suvdayin, ilohiy oddiylik, odamni xayron qoldiradigan qadrdonlik va tug‘ishganlik, shu bilan birga yoki shularning umumiy aks sadosi bo‘lib, qalbingizga singigan cheksiz muhabbat Abdulla Oripov haqida ilk qarashdagina paydo bo‘lgan aldanchi tasavvurning, ya’ni so‘z aytish “qiyin” emasligi, fikr yuritish, hatto hukm bera olish “oson”ligining eng muhim sabablaridandir. Aslida-chi? Aslida esa ushbu bir-biridan jozibador qalb durdonalarini barcha tovlanishlari bilan his qilish, tushunish, tahlilu tavsiflash, nonni, suvni, tuproqni ta’riflashday mushkul...

Necha kunki yo‘q oromim,

Kelolmayman xushimga.

Onajonim kechalari

Kirib chiqar tushimga...

Darhaqiqat, bu sof va samimiy so‘z dunyosiga, sohir va sarkash tuyg‘ular olamiga chuqurroq kirib borgan sayin shoir haqidagi o‘sha dastlabki alamdamchi taasurotning, sarobsimon ishonchning tumanday tarqaganini payqamay qolasiz. Va sizning oldingizda zohiran juda “oson”, mohiyatan esa o‘ta mushkul muammo – Millatga, Vatanga bepoyon muhabbatdan tug‘ilgan va millionlar qalbini zabt etgan, butun bir xalqning buyuk sevgisiga sazovor bo‘lgan, oldin o‘ylaganingiz singari unchalik oson va sodda bo‘lmagan serma’no va murakkab san’at hususida fikr yuritish mashaqqati, mas’uliyati turganligini anglay boshlaysiz... “*Yurtim senga she’r bitdim bu kun Qiyosingni topmadim aslo. Shoirlar bor o‘z yurtin butun Olam aro atagan tanho. Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq, Qanotida kumush diyori. Bir o‘lka bor dunyoda biroq Bitilmagan dstonidir bori. Faqat ojiz qalamim manim O‘zbekiston – Vatanim manim.*”

Biroq qalbingizda xayolot va hissiyotga boy, mo‘jizakor va maftunkor she’riyat bilan yaqinlikdan, oshnolik va oshuftalikdan tug‘ilgan sig‘inishsimon sirli bir tuyg‘u tinchlantirmaydi sizni, nimadir yozishga, nenidir kuylashga undaydi va o‘shanda ham siz baribir Abdulla Oripovni bor bo‘y-basti bilan qamrab ololmaysiz. Balki o‘zingiz kashf etgan, sezgan, ko‘nglingizdan kechirgan shoirdan so‘zlaysiz, yozasiz. Zero, boshqacha iloji ham yo‘q. Umuman, buyuk san’atni talqin qilishning yagona yo‘li va usuli hozircha topilgan emas. Bordiyu bunday “universal” yo‘riq kashf etilgan taqdirda ham o‘shanday “hammabop” yondashuv tarzi san’atni tushunish va

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tushuntirish jarayoniga faqat va faqat zararli ta’sir qilgan bo‘lardir. Abdulla Oripov XX asr o‘zbek adabiyotidagi eng milliy adabiy siymolardan biridir. Milliylik badiiy ijodning zaruriy ma’naviy-estetik sifatlaridan sanaladi. Ma’lum haqiqatki, milliy ruhdan oziqlanmagan, milliylik javhari jonida bo‘lmagan ijodkorning jiddiy va chinakam iste’dod deb tan olinishi va qabul qilinishi anrimahol. Ushbu mulohazadan esa, tabiiy ravishda, har qanday haqiqiy iste’dod har doim va hamisha milliydir, degan qat’iy hukm kelib chiqadi. Biroq shu hatto barcha buyuk ijodkorlar ham teng darajada milliydir degani emas, albatta. Zero, milliylik g‘oyat serqatlam va serqirra bir falsafiy-estetik tushuncha bo‘lib, o‘z tarkibida qator qarindosh milliy-badiiy komponentlarni birlashtiradi. Ya’ni millat hayotini va turmush tarzini, ongu dunyoqarashini, orzu va armonlarini, quvonchu shodliklarini, dard va alamlarini tasvirlashdan tortib, ona tilining son-sanoqsiz tovlanishlarini nozik qilib, ko‘z-ko‘z etishgacha, milliy psixologiya va xarakterni, millat o‘tmishi va tarixini, muhabbat va nafratini, milliy g‘alaba va mag‘lubiyatlarni, millat bu kuni va ertasini, Vatan taqdirini, xullas milliy o‘ziga xosliklarni haqqoniy va yuksak badiiy mahorat bilan ifodalashgacha hammasi milliylik degan keng tushuncha ostida umumlashadi. Chinakam “milliy ijodkor” nomini olish uchun esa yuqoridagi milliy estetik tushunchalardan atigi bittasini badiylashtirishning o‘ziyoq yetarlidir. Shunday bo‘lgach, tabiiyki, barcha qalamkashlar ijodida milliylik bir xil saviyada yoki teng darajada aks etmaydi. Muayyan bir so‘z san’atkoriga nisbatan “judayam milliy shoir” yoki “g‘oyat teran milliy yozuvchi” deya maxsus ta’kidlab aytilishi esa uning asarlarida milliylik keng qamrovda, teranroq va ko‘lamdor aks etganini bildiradi. Aytaylik, Pushkin rus she’riyatida “eng milliy shoir” sifatida baholanishi bu – boshqa rus shoirlari nomilliy degani emas, albatta. Yoki Abdulla Qodiriyning XX asr o‘zbek adabiyotida “Eng milliy yozuvchi” deb tan olinishi boshqa o‘zbek yozuvchilari milliy emas, degan ma’noni anglatmaydi. Balki boshqa qalamkashlarga nisbatan Pushkin va Qodiriy asarlarida milliylik komponentlari yanada chuqurroq va batafsilroq in’ikosiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, ayni shu me’zon bilan XX asr o‘zbek she’riyatiga yondoshsak, qanday manzara bilan yuzlashamiz? Ayniqsa, ustoz shoirlarimizdan qay birlari ijodida milliylik yorqinroq va bo‘rtibroq ro‘yobga chiqqan? Ba’zi bir munaqqid do‘stlarimga oldindan uzrimni aytib, “Hakamona daxlsiz huquq bilan” emas, mutlaqo oddiy va kamsuqum bir qalamkash sifatida ustod san’atkorlarimizdan ayrimlarni alohida tilga olgim keladi: Cho‘lpon, Oybek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Mirtemir, Erkin Vohidov, Rauf Parfi va boshqalar. Darhaqiqat, Izzat Sulton (2), Ozod Sharafiddinov (3), Matyoqub Qo‘shjonov (4), Umarali Normatov (5), Botirxon Akramov (6), Norboy Xudoyberganov (7), Naim Karimov (8), Ibrohim G‘afurov (9), Baxtiyor

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Nazarov (10), No‘mon Rahimjonov (11) va boshqa atoqli adabiyotshunos olimlar Abdulla Oripov lirikasining ana shu milliy-estetik o‘ziga xosligini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Ustoz Abdulla Oripov ana shunday kamyob milliy shoirlarimizdan biridir.

Darhaqiqat, ardoqli shoirimiz tugallanayotgan mazkur yuz yillikdagi she’riyatimizda nafaqat eng xalqchil, ayni chog‘da, eng milliy so‘z san’atkoralaridan biri kabi allaqachonlar e’tirof etilgan. Milliylik Abdulla Oripov lirikasining birlamchi xususiyatidir. Undagi tengsiz go‘zallik va ko‘ngilga yaqinlik, o‘ziga xos fusunkorlik ko‘pincha shu bilan izohlanadi. Bu hislat Abdulla Oripovning obrazlar olamiga, tashbeh va istioralarining qon-qoniga shunchalar singiganki, ixtiyorsiz yod bo‘lib ketgan baytlarni o‘qib turib, huddi o‘z qalbingizning mahram tarjimoniga aylangan sirdosh sartlarni ayta turib, ushbu she’riyatning atigi bir necha o‘n yildan buyon mavjud bo‘lganiga ishongingiz kelmaydi. Go‘yoki, necha-necha asrlardan beri yashaydi bu jozibador lirika. Go‘yoki, tilimiz bu she’rlarni aytayotib chiqqan, ko‘zimiz, didimiz uning ming bir sirru asrorga limmolim to‘la jodugar ohanglari ta’siridan jilolangan. Go‘yoki, aqlimiz kirgandan, esimizni tanigandan uni taniganmiz, uni bilganmiz. Xalqimizning san’atga muhabbatiday qadimiylik bor bu she’riyatda!.. Xuddi mana shu sirli qadimiylik, so‘z bilan tushuntirib bo‘lmaydigan qadrdonlik va tug‘ishganlik, ma’naviy-ruhiy birlik va yakdillik Abdulla Oripov lirikasida milliylik bilan uzviy bog‘liq, qo‘sh va esh bo‘lgan yorqin badiiy-estetik fazilatlar shaklida namoyon etadi o‘zini...

Bahor... O‘zbekiston bahori. Abdulla Oripovning “Bahor”i! Bu men uchun judayam sirli va favqulodda jozibador she’rni, ehtimol, ming bor o‘qigandirman. Biroq sirlariga tushunmay, go‘zalliklariga xayolim yetmay, undagi tuyg‘u va kechinmalarning g‘aroyib-ajoyib tovlanishlarini ko‘ngildagiday seza olmay hadsiz o‘ksiganman. Men bu she’rning ostonasiga bosh qo‘yib necha tonglar orttirganman. Lekin qandaydir ilohiy bir sir va donish pardasi ko‘ngil ko‘zini mudom to‘sib turgan. Xuddi qadrdon Quyoshga tik qarab bo‘lmaganiday – bu she’rga ham aql ko‘zi bilan tikilish ilojsiz... Keling, aziz she’rxon yana bir gal – endi ming birinchi bor, bu she’rning cheksizliklariga singib ketaylik, uning munis va bokira ohanglarida oqaylik. Zora, bu gal ko‘ngil ushbu sehrkor va husnkor she’r mulkidan nenidir sezsa, ilg‘asa, izlab topsa... *“Yana bahor keldi. Yana olamda ajib bir go‘zallik, ajib bir bayot. Men seni qutlayman shu ulug‘ damda. Aziz yelkadoshim, muzaffar hayot! Tashbeh axtarmangiz ushbu g‘azaldan. Naqd joyda nasiya ne kerak asli. Ayon bir xislatining bordir azaldan. Seni atamishlar uyg‘onish fasli!”* Kamalakday serjilo dilrabo va ohangrabo ohanglar oqimini bir zumga to‘xtatamiz. Va o‘shandagina shuning ilojsizligini savqi tabiiy orqali tuyamiz va ayni shu tuyg‘u bizga bir nimalarni

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

aytayotganday bo‘ladi; she‘rdagi misralarning bahoriy to‘lqinlarday tizginsizligini, tig‘izligini va ularni bir-biridan ayirib-ajratib bo‘lmasligini butun vujudingiz bilan sezib ajablanasiz. Yoniq qalb haroratidan va hayojonidan tug‘ilgan bu ajib so‘z tizimlari qandaydir sirli alfozda bir-biriga tutashib ketgan, ko‘ngilni entiktiruvchi cho‘qqilar silsilasini eslatadi. Va ilk qarashda qadimiy va ko‘hna lirika tabiatiga va an‘anasiga unchalik mos tushmaydigan bu uzun va ulkan she‘r qanday qilib bir zarb bilan, bir nafasda, g‘oyat yaxlit va butun shaklu shamoyilida qog‘ozga tushganiga hayratlangandan xayratlanaverasiz. Yana sizni lirik dostonga yarashgulik poetik makonda donishmand Xayyom ruboiylariga xos pishiqlik, puxtalik va yombilikning ro‘yobga chiqishi, Navoiy va Fuzuliy mumtoz g‘azaliyotidagi lirik kayfiyatning bir butunligi va mukammal izchilligiga monandlik hayron qoldiradi.

Shoirona nigohning serqirraligini va behad qamrovdorligini aytmailsizmi... She‘rda hayot, borliq, abadiyat haqidagi falsafiy o‘ylardan bahor kelishi, ona tabiat uyg‘onishi, hatto bu uyg‘onishning ko‘z ilg‘amas, faqat shoirona nazarga ko‘rinish beradigan dastlabki nishonalari va belgilari tasviriga o‘tilishi maftunkor mahorat namunasidir... Xuddi sovuqdan, ayozdan muzlagan kaftini ishqalayotganday tuyulgan yerlarning uyg‘onishi, bobo quyoshning yuksalishi, qishning oppoq yukini tashlab tog‘larning kiftini ko‘tarishi, yellar uyg‘otgan, bahor nasimiga quvonib bosh silkitayotgan bezavol maysaning beg‘ubor holatidan tarnov bo‘g‘zidagi ko‘rkam lolagacha, yashil po‘panakdan qanot boylab xuddi uchishga shaylanayotgan chirik xazongacha... barcha- barchasi hassos shoir nigohida aks etadi. Bunda muhimi birgina badiiy tasvirning nihoyatda aniqligi va nafisligigina emas, shoir kuzatishlarining haqqoniyligi bilan birga, ayni chog‘da judayam milliylikidir. Yuqorida tilga olingan biri-biridan ta‘sirchan, hissiyotchan misralarda abadiylashgan go‘zal va rang-barang hayotiy holatlarni, jonli va jozibali tabiiy manzaralarni, tabiat uyg‘onishining turfa nozik ko‘rinishlarini, nazarimda, faqat o‘zbek shoirininggina ko‘ra va kuzata olishi mumkinday tuyuladi menga. Va gap faqat

Tarnovlar bo‘g‘zida lola ham ko‘rkam

yoki

Hattoki tuyg‘usiz, chirik hazon ham

Yashil po‘panakdan bog‘labdi qanot

kabi satrlardagi g‘oyat nozik va behad bo‘rtib ifodalangan milliy nazarning ochiq-ravshan, o‘chmas izlaridagina emas, hatto ushbu bosiq badiiy falsafiy misra

Terak uchlarida izg‘ir mavjudot

ham yorqin va benazir milliy nigohning tajassumiday taassurot qoldiradi...

Poetik bo‘yoqlarning bunchalar quyuqligi va bosh estetik niyatga uyg‘unligi milliy kechinma va kayfiyatning bu darajada aniq va betakror badiiy timsollarda

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

in’ikosi, nazmiy ifoda imkoniyatlariga sig‘maydigan tasvir bemalolliigi va erkinligi, umuman, she’riy tajribada kamdan-kam uchraydigan adabiy namunalar toifasiga mansubdir, desak aslo adashmaymiz. Abdulla Oripov lirikasida esa badiiy tarix va tajribalarni boyitadigan bunaqangi misollar ko‘nglingiz tusagancha topiladi.

Men Abdulla Oripov qalamiga mansub aksariyat she’rlarning, ayniqsa, “Bahor”ning hatto qadim va boy dunyo tillariga ham tarjimasini tasavvur etishga qiynalaman. Sof milliy yondashuv hosilasi bo‘lgan, milliy nigohni o‘zida mujassamlashtirgan, milliy ruh va kayfiyat taratuvchi so‘z va obrazlarni, qon-qonimizga singgan sof o‘zbekona istiora va iboralarni, tashbeh va o‘xshatishlarni qanaqasiga – qanday qilib, qaytadan boshqa biron tilda yaratish – yangratish mumkinligiga aqlim yetmaydi:

Bu sokin elda ham ivirsir bahor

yoki

Bahor tetapoya go‘dakday shirin...

Ushbu misralarni o‘girishning iloji bormikan? Birgina “ivirsir” fe’lining ma’naviy-estetik ko‘lamini, bu so‘z qo‘zg‘agan assotsiativ holatlarni qamrab olishni aytmaymizmi!.. Yoki “Bahor tetapoya go‘dakday shirin” istiorasining ma’no qatlariga e’tibor bering. Erta bahor va tetapoya go‘dak! Naqadar tabiiy va hayotiy, g‘oyat falsafiy o‘xshatish! Tabiatnig va insonnig bolalik, atak-chechak chog‘lari... O‘xshatish zamiridagi mukammal mantiqiy uyg‘unlik va ideal ohangdoshlik aqlni lol qoldiradi. Ayni paytda behad o‘zbekona qiyos bu!.. Ehtimol, bir amallab bu kabi dohiyono milliy badiiy kashflarni o‘zga tillarda tiklash mumkindir. Biroq ularning asliyatdagi ma’nolar ko‘lamini va jozibasini qayta tiklash amri mahol!..

Samimiy dil so‘zlarimizni adabiiy taassubkashlikda ayblashga shoshilmang, muhtaram o‘quvchi! Kamina jahon lirikasida bahorga bag‘ishlangan o‘nlab betakror va betimsol namunalar borligiga chin dildan ishonaman. Ularning ancha-munchasini sevib ardoqlab o‘qiganman. Lekin o‘sha o‘zicha go‘zal va o‘ziga xos she’rlarning birontasidan faqat va faqat o‘zbek shoirininggina hassos nigohi ilg‘ashi mumkin bo‘lgan ushbu munis va bokira, behad aziz va qadrdon lahzalarni topolmaymiz...

Dilbar kelinchakning ko‘ksida g‘uluv

Zardoli shohiga tashlar ko‘z qirin.

Barg aro shu’lalar kaftlarmikan u...

Bahor tetapoya go‘dakday shirin...

Har bir misrada milliy did barq urgani va hatto har so‘zda milliy kayfiyat tovlangani, milliy sezim va qarash jilvalangani bois butunlikda she’r milliy “men”lik va ma’naviyatning uzviy bo‘lagiga aylangan. Va mutolaa jarayonida beixtiyor qalbingizda shirin va mas’ud damlar bilan bog‘liq aziz xotiralar, qadrdon va ezgu

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

xissiyotlar oqimi, milliy xotirotning hatto teran va olis xatlari jonlanishiga, uyg‘onishiga turtki beradi: *“Bu kun she’ri chiqqan shoirday dunyo. Jilmayib qo‘yadi barchaga masrur. Temurlang gumbazin qo‘ynini go‘yo yoritgani kabi bir lahzalik nur.”*

Abdulla Oripov lirikasida milliylikning ro‘yobga chiqish hususiyatlari va o‘ziga xos ko‘rinishlari to‘g‘risida gap borar ekan, darvoqe, o‘zi ham zamonasining eng milliy san‘atkorlaridan biri kabi mashhur bo‘lgan A.Tvardovskiyning “Pushkin haqida so‘z”ini yana bir eslash joizdir: “V svoeye vremya Turgenov, ostorojno, s ogovorkami nazывaya Pushkina natsionalnom poetom, mejdu prochim, podcherkivaya otlichiye etogo poniyatiya ot ponyatiya – narodnyy poet. No... kakoy je velikiy poet, – govoril on, – chitayetsya temi, kogo мы nazывayem prostym narodom? Nemetskiy prostoy narod ne chitayet Gyote, fransuzskiy – Molera, daje angliyskiye ne chitayet Shekspira” (tarjimasi: “O‘z vaqtida Turgenev bosiqlik bilan, sal tagdor qilib, Pushkinni milliy shoir deb atab, ayni paytda, mazkur tushunchaning xalq shoiri tushunchasidan farqini ta’kidlab o‘tgandi. Naqadar buyuk shoir, – degan edi u, – hatto sodda xalq tomonidan ham sevib o‘qiladi. Olmonlarning oddiy xalqi Gyoteni o‘qishmaydi, fransuzlarniki Molerni, hatto oddiy inglizlar Shekspirni o‘qimaydilar”).

Buyuk Pushkin haqida aytilgan ushbu behad samimiy adabiy o‘y va fikrlarni bemalol sevimli shoirimiz Abdulla Oripov lirikasiga ham oid etishimiz mumkin. Bu dilbar va fusunkor she’riyatning elimiz orasida hayratomuz darajada mashhurligi, kitobxonlar, minglab oddiy ish va mehnat odamlari, sodda xalq tarafidan o‘qilishi, baholanishi va qadrlanishi fikrimizni to‘la-to‘kis tasdiqlaydi.

Xulosa

Abdulla Oripov lirikasida milliylik va o‘ziga xoslik. Maqolada o‘tgan asr 50-yillar oxiri va 60-yillar boshlarida o‘zbek adabiyotida ro‘y bergan jiddiy sifat o‘zgarishlaridan bahs etiladi. Ayniqsa, o‘zbek poeziyasidagi yangilanishlar nafaqat mahalliy olim va adiblarning, ayni paytda, Butun Ittifoq miqyosidagi adabiy jamoatchilikning diqqat-e’tiborini o‘ziga qaratgandi. Nafaqat qondosh va qarindosh jumhuriyatlar Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikistonu Ozarboyjonlarda, balki sobiq ittifoqning barcha olis-yaqin madaniy markazlarida, adabiy doiralarda Abdulla Oripovni juda yaxshi bilishardi. Cho‘lpon, Oybek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Mirtemir, Erkin Vohidov, Rauf Parfi va boshqalar bilan bir qatorda Abdulla Oripov she’riyatining favqulodda darajada tabiiyligini va ulug‘vorligini, milliylik va o‘ziga xoslik uning qon-joniga singiganligini adabiy jamoatchilik allaqachonlar tan olganlar. Ustoz adabiyotshunos olimlar va boshqa qator atoqli san‘atkorlar Abdulla Oripov iste’dodiningq parloq kelajagiga chukur ishonch bildirishgandi. Maqolada

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

mana shu fikr va mulohazalar shoirning ijodiy izlanishlari bilan qiyosiy ravishda tadqiq etiladi va umumiyashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Oripov. Yillar armoni. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, "Oqituvchi" nashriyoti, 1980.
3. Ozod Sharafiddinov. Go'zallik izlab. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1985.
4. Matyoqub Qo'shjonov. Kamalakdek serjilo. Karang: Abdulla Oripov. Yillar armoni. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984, 3-23.
5. Umarali Normatov. Yetuklik. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1982.
6. Botirxon Akramov. Olamning butunligi. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1988.
7. Norboy Xudoyberganov. So'z kurashga chorlaydi. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1978.
8. Naim Karimov. O'zbek sovet poyeziyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1984.
9. Ibrohim G'afurov. She'iriyat - izlanish demak. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984.
10. Baxtiyor Nazarov. Bu sehrli dunyo. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1980.
11. No'mon Rahimjonov. Shoir va davr. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1983.